

BOSHANG‘ICH SINFLARGA ONA TILI, MATEMATIKA FANLARINI O‘QITISHDA YANGI METODLARDAN FOYDALANISH

Alinazarova Dilfuza Maxamatjonovna

Andijon viloyati Marhamat tumani

19- umumiy o‘rta ta‘lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

alinazarovadilfuza@gmail.com

ANNOTATSIYA: *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarga ona tili, matematika fanlarini o‘qitishda yangi metodlardan foydalanish, o‘quvchilarga ma‘lum bir dastur asosida matematik bilimlar berish haqida ma‘lumotlar berilgan.*

KALIT SO‘ZLAR: *Pedagogika, geometrik, Fikriy hujum, Osborn.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье представлена информация об использовании новых методов в обучении родному языку, математике и обеспечении учащихся математическими знаниями на основе конкретной программы.*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *педагогика, геометрия, мозговой штурм, Осборн.*

ABSTRACT: *This article provides information on the use of new methods in the teaching of the mother tongue, mathematics, and providing students with mathematical knowledge based on a specific program.*

KEY WORDS: *Pedagogy, geometric, Brainstorming, Osborne.*

Pedagogika yo‘nalishidagi o‘qituvchilar o‘quvchilariga boshlang‘ich matematika nazariyasi va metodikasi fanini o‘qitish o‘qituvchidan nafaqat metodik mahoratni, balki metodik tushuncha, faktlar mohiyatini chuqur tushunishni ham talab etadi. Matematika, barcha fanlar qatori, butun borliqda yuz beradigan barcha jarayonlarni o‘rganadi. Bundan, sodir bo‘ladigan bu jarayonlarni matematik ifodasi mavjud, degan xulosa kelib chiqishi tabiiy. Masalan, talabalarning o‘zlashtirish darajasi, samolyotning parvozi, talabaning harakati, havo harorati va turli iqtisodiy

masalalar maxsus tenglamalar orqali o'rganiladi. Ayniqsa, narsalarning rangi, og'irligi va zichligi qanday bo'lishi- dan qat'i nazar, ularning geometrik xossalarini matematikaning bo'limi bo'lgan geometriya fani tekshiradi va o'rgatadi. Boshlang'ich matematika kursining vazifasi maktab oldiga qo'yilgan "o'quvchilarga fan asoslaridan puxta bilim berishda yangi texnologiyadan foydalanish, ularga hozirgi zamon ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarni berish, turmushga, kasb-hunarga yo'naltirish, kasblarni ongli tanlashga o'rgatish" kabi vazifalarni hal qilishda yordam berishdan iborat.

Shunday qilib, boshqa har qanday o'quv predmeti kabi matematika boshlang'ich kursi matematika o'qitishning maqsadi quyidagi uch omil bilan belgilanadi:

1. Matematika o'qitishning umumta'limiy maqsadi.
2. Matematika o'qitishning tarbiyaviy maqsadi.
3. Matematika o'qitishning amaliy maqsadi. Matematika o'qitishning umumta'limiy maqsadi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

a) o'quvchilarga ma'lum bir dastur asosida matematik bilimlar berish. Bu bilimlar matematika fani to'g'risida o'quvchilarga yetarli darajada ma'lumot berishi, ularni matematika fanining yuqori bo'limlarini o'rganishga tayyorlashi kerak. Bundan tashqari, dastur asosida o'quvchilar o'qish jarayonida olgan bilimlarning ishonchli ekanligini tekshira bilishga o'rganishlari, nazorat qilishning asosiy metodlarini egallashlari lozim.

b) o'quvchilarning og'zaki va yozma matematik bilimlarni tarkib toptirish lozim bo'ladi;

Matematikani o'rganish o'quvchilarning o'z ona tillarida nutq madaniyatini to'g'rishakllantirish, o'z fikrini aniq, ravshan va lo'nda qilib bayon eta bilish malakalarini o'zlashtirishlariga yordam berishi kerak.

d) o'quvchilarni matematik qonuniyatlar asosida real haqiqatlarni bilishga o'rgatish.

Bunday bilimlar berish orqali esa o'quvchilarning fazoviy tasavvur qilish xususiyatlari shakllanadi hamda mantiqiy tafakkur qilishlari yanada rivojlanadi.

Boshlang'ich matematika o'qitishning tarbiyaviy maqsadi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- a) o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.
- b) o'quvchilarda matematikani o'rganishga bo'lgan qiziqishlarni tarbiyalash.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritiladi. Quyida amaliyotida foydalaniladigan interfaol metodlardan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish borasida so'z yuritamiz.

“Fikriy hujum” metodi Mazkur metod o'quvchilarning mashg'ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiasidan ozod etish, muayyan mazvu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rganish uchun xizmat qiladi.

“Fikriy hujum” metodi A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, uning asosiy tamoyili va sharti mashg'ulotning har bir ishtirokchisi tomonidan o'rta tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta'qiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag'batlantirishdan iboratdir. Bundan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning mashg'ulot jarayonidagi erkin ishtirokini ta'minlashdir. Ta'lim jarayonida ushbu metoddan foydalanish o'qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko'lamining kengligiga bog'liq bo'ladi. “Fikriy hujum” metodidan foydalanish chog'ida o'quvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodga asoslangan mashg'ulot bir saotga qadar tashkil etilishi mumkin.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fani o'z vazifalarini belgilab olishda ta'lim sohasidagi davlat hujjatlariga tayanadi. Keyingi yillarda mustaqillik sharofati bilan ta'limni tubdan isloh qilish davlat siyosatining asosiy yo'nalishiga aylandi.

O'zbek tili o'qitishning o'ziga xos prinsiplari

1. Til o'qitishda tabiiylikka rioya qilish. Maktabda til o'qitish maktabgacha tilni o'zlashtirish jarayonining tabiiy davomi bo'lishi kerak. Tilni o'qitishda tabiiylik prinsipiga amal qilishda o'quvchilarning boshlang'ich sinfda olgan bilimlarini hisobga olish, til materiallarini jonli nutq tarkibida o'rgatishga e'tibor berish lozim bo'ladi.

2. Yozma nutqni og'zaki nutqqa chog'ishtirib o'rgatish. Og'zaki va yozma nutqni o'zaro chog'ishtirib o'rgatish o'quvchilarning imlo savodxonligini oshiradi, ular orfoepik va orfografik qoidalarining farqlarini ongli ajratadigan bo'ladi. Bunday o'qitish o'quvchilarning nutq madaniyatini oshiradi. Bu prinsip quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi: tovushni harf bilan chog'ishtirish, punktuatsiyani ohang bilan chog'ishtirish, og'zaki mashqdan yozma mashqqa qarab borish.

3. O'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirib borish prinsipi. Nutqning ifodaliligi va ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ko'nikma va malakalar ona tili mashg'ulotlarida shakllanadi. Tilning barcha bo'limlari ham nutqiy mahoratni rivojlantirishda keng imkoniyatga ega.

4. Til bo'limlari va ular orqali ifodalangan ma'nolarni ajratish. O'quvchilar tilni yaxshi egallashlari uchun uning fonetikasini puxta bilishlari lozim. Fonetik qoidalar esa talaffuz meyorlarini belgilashda muhim o'rin tutadi. Fonetikani yaxshi o'rgatish imlo, leksikologiya va grammatikani yaxshi o'rgatishga ham yordam beradi.

5. O'quvchilarda yoshlikdan "til sezgirligi" tuyg'usini shakllantirish. Bu qobiliyat tufayli o'quvchilar har bir so'z va shaklni o'zidagi mavjud bilim va malakalar yordamida tez uqib, ularni amaliy nutqqa tadbiiq etadilar.

6. O'quvchilarning yozuv madaniyatini, savodini uzluksiz oshirib borish. O'quvchilarning orfografiya va punktuatsiyaga doir bilim-malakalarini oshirish uchun og'zaki va yozma nutq doimo qiyosiy ravishda o'rganilishi kerak. Masalan, tinish belgilarini to'g'ri qo'yish uchun oquvchi gapning sintaktik qurilishini yaxshi bilishdan tashqari nutqning ohang tomonini ham fahmlay olishi zarur. Og'zaki

nutq bilan yozma nutq orasidagi munosabatni to'g'ri belgilash orqali o'quvchilarning yozuv malakalari ham takomillashib boradi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi Qonuni". 1997-y 29-avgust.
2. B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyadova. "O'zbek tili o'qitish metodikasi" Toshkent. "Yangi asr avlodi" nashriyoti. 2006-y.
3. A.G'ulomov, M.Qodirov "Ona tili o'qitish metodikasi" Toshkent. "Universitet" nashriyoti. 2001-y.